



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
ona tili fanidan II chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-sinf ona tili fanidan
II chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Tilning ijtimoiy ahamiyati. Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat	1		
2.	“Husnixating bo‘lsa...” matni bilan tanishish	1		
3.	Matn ustida ishlash. Yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosi.	1		
4.	Epigraf va uning ifodalanishi	1		
5.	“Qayerdasan, maktabim?” matni bilan tanishish	1		
6.	Matn ustida ishlash. Zid ma’noli so‘zlar	1		
7.	“Ta’zir” va “So‘zning ma’nosi” matnlari bilan ishlash.	1		
8.	Zid ma'noli so‘zlar	1		
9.	So‘roq gap. Matn ustida ishlash	1		
10.	“Dunyoning ishlari” asaridan olingan parcha (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlarini bajarish	1		
11.	Fe’llarning zamon shakllari	1		
12.	“Oyim bilan arazlashdim” she’ri bilan tanishish	1		
13.	“O‘rtog‘imga yon daftarcha” loyihasi taqdimoti	1		
14.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
15.	Atoqli otlar va ular imlosi	1		
16.	4-nazorat ishi	1		
17.	“Xumpar, xo‘tik, qulun: uy hayvonlari o‘zbekchada qanday ataladi?” matni ustida ishlash	1		
18.	G va K undoshlari talaffuzi va imlosi	1		
19.	“Dars” matni bilan tanishish. D va T undoshlari talaffuzi va imlosi	1		
20.	“Lug‘at va uning turlari” matni ustida ishlash. Shakldosh so‘zlar	1		
21.	Lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatishga oid topshiriqlar. Shakldosh so‘zlar	1		
22.	“G‘aroyib so‘zlar” audiomatni. Tinglab tushunish topshiriqlari ustida ishlash. Istak gap	1		
23.	“Joy nomlarining kelib chiqishi” matni ustida ishlash	1		
24.	Joy nomlari imlosi	1		
25.	Rasm asosida og‘zaki hikoya tuzish	1		
26.	Bob yuzasidan takrorlash	1		
27.	5-nazorat ishi	1		
28.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Tilning ijtimoiy ahamiyati. Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas’uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: darslik materiallari va undan tashqari manbalar (televizor, radio)dan ma’lumotlarni topa olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: adabiy til va nutq me’yorlariga amal qilish, badiiy asarlarni tushunish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Gapirmasdan, imo-ishoralar orqali bugungi ob-havo, hozirgi kayfiyatingiz haqida bir-biringizga ma’lumot bering.

Matnni o‘qing. Adib nima uchun bu holatga tushganini izohlang. Shunga o‘xshash vaziyat sizda ham bo‘lganmi? Javobingizni izohlang.

...Nihoyat Londondan Toshkentga uchadigan bo‘ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: “Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!” Rostini aytсам, ko‘zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so‘zlar mening tilimda, ona



tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag'in yuzlab xorijiy yo'lovchilar o'tirgan . kemada!..

O'tkir Hoshimov

She'riy parchalarni ifodali o'qing va savollarga javob bering

Ming yillarkim bulbul kalomi
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho'rlik to'tining holi
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman.
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman!

Abdulla Oripov



...Sen o'zingsan alla bilan dilga tushgan
Va ilk bora "ona" deya tilga tushgan.
Koshg'ariydan tortib barcha bobolarim
Menga faqat til hikmatin o'rgatishgan.
Shu til borki, shu el borki - men ham borman
Tilin aziz bilganlarga do'stman, yorman.
Qo'lga qalam tutdim, demak, ajdodlardan
Avlodlarga so'z tashuvchi dastyorman!

Orif To'xtash

1. Ushbu she'rlarni birlashtiruvchi jihat nima deb o'ylaysiz?
2. Abdulla Oripov she'rida nima uchun to'ti tilga olingan?
3. "Sen bo'lmasang, so'zlarning bag'ri ming tilim bo'lar" deganda nimani tushundingiz?
4. Sizingcha, kimga nisbatan "ajdodlardan avlodlarga so'z tashuvchi dastyor" degan jumla ishlatilgan?
5. Til orqali dilga yo'l ochiladi deganda nimani tushunasiz?
6. She'rlarga sarlavha toping.

So'zlarni izohlari bilan moslab daftaringizga yozing. **Diqqat, bitta izoh ortiqcha.**

1	kalom	A	qovun yoki tarvuzning kesilgan bo'lagi
2	yaxlit	B	hashamatli, shohlarga xos
3	tilim	D	donolikni ifodalovchi so'z
4	shohona	E	shoh yashaydigan saroy
5	hikmat	F	ota-bobolardan qolgan zurriyot
6	ajdod	G	yordamchi, ko'mak beruvchi
7	avlod	H	ota-bobolar
8	dastyor	I	butun, qismlarga bo'linmagan
		J	so'z, gap, nutq

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarga mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, darslikdagi mashqlarni og'zaki va yozma bajarish, guruhlarda ishlash orqali misollar tuzish.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Harflar zanjiridagi so'zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

NUTQMNGSHEVAOADABIYEDBAHSIJTIMOIYLAHJA
FAXRNTNOTIQSUHBATTILPOLIGLOTO'ZBEKQRHF
MAQOMMVATANBFITMADHIYAMUOMALAONA

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Husnixating bo‘lsa...” matni bilan tanishish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha bilim berish, grammatik qoidalarni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ravon yozishga o‘rgatish va og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamoada ishlash madaniyatini tarbiyalash, intizom va mas’uliyat hissini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va tez va to‘g‘ri fikr bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

– shaxsiy rejalarni tuza olish, turli jadvalli ma’lumotlarni o‘qiy olish, hisobkitob bilan ish yuritish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Husnixat nima?

2. Yozuvingiz tufayli kimlardan maqtov yoki tanbeh eshitgansiz?

Husnixating bo‘lsa...

“Negayam ikkinchi smenaga o‘tdik, hozir maktabda o‘tirgan bo‘lardim-a...”

Shiftga qarab xayol surib yotgan Muhammaddiyorning soati bizning vaqt bilan ertalabki to‘qqizni ko‘rsatmoqda. Hamma nonushta qilib bo‘lgan. Onasining: “Hozir zilzila bo‘lsa ham rozi edim. Balki, shunda turib ketarmiding”, - degan achchiq tanbehi esiga tushdi.

Qattiq silkinishdan qoʻrqib uygʻonishi-yu, qiy-chuvga qaramay, eng muhim narsalari (oʻzi yasagan oʻn beshtacha qogʻoz maket, hamyon, mashinacha, rangli qalamlar, marker, oq qogʻoz, doʻsti sovgʻa qilgan yaltiroq tosh va buterbrod)ni papkasiga solib, deraza oldidagi oʻrikka sakrashini xayol qildi.

Aytmoqchi, dadasi ishga ketmagan boʻlsa, mashina kalitini olvoladi va uyquning qolganini mashinada uraveradi. Xullas, buvisi aytganidek, bari yaxshilikka!

- Turganim bilan mashinaga chiqib uxlayveraman, - deydi ataylab onasining gʻashiga tegish yo aqlliligini namoyish qilish uchun.

Onasi yarim piyola muzdek suvni yuziga sepib, ishga ketgach, bari xomxayolli, onasi dunyodagi eng rahmsiz ona ekanini oʻyladi...

Nonushtadan keyin chala qolgan darslarini qilishga oʻtirdi.

Oʻzi uy vazifalarini kecha tugatgan, lekin onasining: “Xating muncha xunuk, koʻp xato qilibsan”, - degan gapi uchun mashqni qaytadan koʻchirishi kerak.

Husnixatning oʻzi nima keragi bor, tavba? Onasiga qoʻngʻiroq qilib, bajarmasligini aytadi.

- Qayta yozmayman, oyi. Chiroyli boʻlishi shartmas, toʻgʻri yozilsa boʻldi...

- Muhammaddiyor, istasang, bib-binoyidek yozishingni, hatto yozuving husnixat sifatida “Word” dasturiga kiritilishi mumkinligini ham bilaman. Bilmaganimda, talab qilmasdim.

- Tushunmadim, qanday dastur?

- Kompyuterdagi matn bilan ishlovchi “Word” dasturini aytyapman. “Shriflar” degan joyini bossang, allaqancha husnixat turlari kelib chiqadi, bilasan-a?

-Ha.

- Ular qayerdan paydo boʻlgan?

- Bilmasam, kompyuter yozgan boʻlsa kerak.

- Yoʻq. Bu yozuvlar sendek oddiy odamlarning xati asosida paydo boʻlgan. Demak, sen ham boshqalarnikiga oʻxshamagan uslubga ega boʻlsang, husnixatingdan foydalanishlari mumkin. Masalan, reklama, kitob va istalgan boshqa joyda sening xating ishlatilishi mumkin, tushundingmi?

- Qoyil!

- Endi bilyapsanmi qanday iqtidoring borligini? Ishga solmasang, u seni tark etadi. Hammasi xunuk yozishga koʻnikishdan boshlanadi.

“Tavba. Hozirgina yozgim kelmayotuvdi, oyimning gaplari bilan goʻzal yozuv yaratish ishtiyoqi paydo boʻldi...”

Qahramonimiz qoralama varaqqa mashq yozdi, suratga olib telefondan onasiga joʻnatdi.

- Yomon emas, lekin bundanam yaxshiroq yoza olasan. Harflaringning boʻyini oʻstirib, jamalak buramalarga nuqta qoʻy. Qoʻlni uzmay yozish kerak.

-Axirshunisi chiroyli-ku!

- Aytganimdek qilib koʻrgin.

Yana qoralamaga onasi aytganidek yozdi va shu nusxasi juda chiroyli chiqqanini oʻzi ham payqadi. Daftarga koʻchirganda yanada tekis va chiroyli yozdi. Shunday qiziqib ketdiki, tamoman yangicha yozuv usullarini ixtiro qilishga tushdi. .



Gulgun Usmanova

Soʻzlarning maʼnosini daftaringizga yozing va izohli lugʻatdan tekshiring.

Soʻzlar	Taxminim	Lugʻatda
maket
marker
buterbrod
xomxayol
bib-binoyi
iqtidor
qoralama

1. Muhammaddiyor uchun eng muhim narsalar nima?
 2. Nima sababdan Muhammaddiyor onasining tanbehlariga qarshi bahona oʻylab topadi?
 3. Sinfdoshlaringizdan kimning xatini chiroyli hisoblaysiz? Nima uchun?
- Agar Muhammaddiyorning onasi quyidagidek yoʻl tutsa, nima boʻlar edi? Fikringizni yozing.

Xunuk yozuvli daftarni yirtib tashlasa...	...
Oʻqituvchiga shikoyat qilsa...	...
Bolasini oʻz ixtiyoriga qoʻyib, eʼtiborsiz boʻlsa...	...
...	...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: oʻquvchilarga mavzu yuzasidan savol-javob oʻtkazish, darslikdagi mashqlarni ogʻzaki va yozma bajarish, guruhlarda ishlash orqali misollar tuzish.

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Berilgan jummalardan foydalanib rasm asosida matn fuzing. Hikoyangizga sarlavha qoʻying.

oltin kuz koʻzi tushmoq qalin dugonalar shumshaymoq mehr toʻla koʻzlar
dagʻ-dagʻ titramoq sharros yomgʻir paqqos tushirmoq xotirjam mittigina

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

66 listdan iborat ona tili fanidan 5-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**